

6.10. Kanalizatsiya bizimiga ruxsat etilmagan yong'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini "Iste'molchi"lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalarini" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi"larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar orttiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov talabnomasi va hujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda ro'lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida Qoidalar va shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar kelishuv yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, nizolar Samarqand shahar Iqtisodiy sudi yoki Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudida ko'rib chiqiladi.

VIII. Fors - major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, de'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkor shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va har bir tarafda bir nusxadan saqlanadi. Shartnoma taraflar imzolangan paytdan kuchga kiradi. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

9.2. Shartnoma imzolangan sanadan boshlab bir yil muddat davomida haqiqiy hisoblanadi va taraflarning birortasi shartnomani bekor qilish haqida yozma ravishda murojaat qilmasa, keyingi muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

9.2.1. Ushbu shartnoma II guruh iste'molchilari (budjet tashkilotlari) uchun G'aznachilik organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli Qaroriga muvofiq, majburiy ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Budjerdan mablag' oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-son bilan ruyxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining G'azna ijrosi koidalari" ga asosan amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.

9.3. Ushbu shartnomada o'z ifodasini topmagan barcha masalalarning hal qilinishida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish qoidalarini" ga amal qilishadi.

X. Tomonlarning manzili va rekvizitlari:

"Ta'minotchi"

«Samarqand suv ta'minoti» MCHJ
Samarqand sh., O'zbekiston ko'chasi 114 A uy.
Tel/faks: 66-2370408
h/r - 2263800000000743396
ATIB "O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati filiali"
MFO 000712, STIR 200613125, XXTUT 90213
www.suvokova.uz

M.O.



Yuridik xizmat:

Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yuridik xizmatlari to'g'risida" shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonun talablariga muvofiq keladi.

Yuridik xizmat vizasi

[Handwritten signature]

"Iste'molchi"

«Samarqand suv ta'minoti» MCHJ
manzili: Samarqand sh. O'zbekiston ko'chasi 114 A uy.
h/r: 2263800000000743396
MFO 000712, STIR 200613125, XXTUT 90213
e-mail: *[Handwritten email address]*
tel: 66-2370408

M.O.

